

AQPETKEY ARXEPELAGI TUPROQ MAKROFAUNASINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI.

Jumanov M.A, Isayev R.T, Ilyasova G.J, Allashova M.T.

Qoraqalpogʻ davlat universiteti

raxmanbergeni@gmail.com

Annotation. *The relevance of the research: Environmental change is one of the main factors of the emergence of unique biogeocenosis and landscapes. Today, a bioecological disaster is occurring in the world due to the negative impact of astrogenic factors on people close to a person. One of them is the drying up of the Akpetkey archipelago.*

Aqpetkey arxipelagi, O'zbekistonning janubidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida joylashgan. Aqpetkey arxipelagi Orol dengizining shimoliy qismida joylashgan. Qorabayli nomi bilan atalgan 70 ga yaqin orollar yig'indisidan (43°19.673'E 60°22.'041') tashkil topgan.

Bugungi kunda tuproq makrofaunasi asosan hasharotlar, qurtlar, mollyuskalar va boshqa kichik hayvonlardan iborat. Har bir tuproq turi va ekosistemada turli xil makrofauna turlari mavjud bo'lib, bu turlar o'zaro bog'liq bo'lgan ekologik funktsiya va jarayonlarga ta'sir qiladi. Tuproq makrofaunasi organik moddalarning parchalanishida va tuproqning unumdorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Tuproq makrofaunasi turli tuproq tiplarida, qumli, loyqa va qora tuproqlarda farq qiladi. Tuproqning strukturalari, masalan, porozik tuzilishi va oziq moddalar miqdori, makrofaunaning xilma-xilligiga ta'sir qiladi.

Aqpetkey arxipelagining makrofaunasining bioekologik xususiyatlari hayvonlar turlarining xilma-xilligi, ularning ekologik bo'shliqlari va ekotizimdagi munosabatlarini o'z ichiga oladi. Tuproqda juda ko'p miqdorda har xil hayvon organizmlari (tuproq faunasi) mavjud. Ular tuproqdagi biologik proseslar keshishida aktiv qatnashadi. Aqpetkey arxipelagida tuproqda eng sodda jonivorlar bilan bir qatorda ko'plab umurtqasiz va umurtqali hayvonlar ham yashagan. Umuman olganda Aqpetkey arxipelagi tuproq makrofaunasida Orol dengizining butunlay yo'q bo'lishi natijasida muhitning o'zgarishlari zararkunanda ksilofag-hasharotlarning rivojlanishi uchun qulay joyga aylanadi. Bu hayvonot olami tuproq hayotida jumladan, tuproqda organik moddalar to'planishida va tuproqning suv-havo rejimini yaxshilashda katta ahamiyatga ega. Aqpetkey arxipelagi hamda mikroorganizmlar bilan bir qatorda Protozoa, ya'ni bir hujayrali eng sodda hayvonlar ham ko'proq tarqalgan, chunonchi, xivchinlilar (Flagelata), ildizoyoqlilar (Rhizopoda) va infuzoriylar (Ciliata) singari jonivorlar ayniqsa bahor fasllari tuproqlarning ustki qatlamlarida ko'proq rivojlanadi. Aqpetkey arxipelagida tuproq tarkibi mineral, va organik-mineral moddalardan iborat hamda tuzli qavati 30% gipsli qatlamlar 70-80% dan ko'proq bo'lmoqda. Bu tuzlarning gips va ohak o'simliklar uchun eng zararsiz tuz hisoblanadi, lekin keyingi tekshirishlardan gips ko'p to'plangan qatlamlarda yer osti suvi yaqin bolgan anaerob sharoitda H₂S zararli gazi ajralib madaniy ekinlarga zaxarli ta'sir qilishi aniqlangan. Tuproq tarkibidagi tuzlarning o'simliklarga ta'siri juda murakkab prosessdir.

Agar Aqpetkey arxipelagi sho'r tuproqlar tarkibida bir necha xil tuzlar bo'lsa, ularning zararlari kamroq bo'ladi. Dengizning qurigan tubi muammoli zonasida katta miqdorda tuz ushlangan yotqiziqlar dominantlik qiladi, bu yotqiziqlarda sho'rxohlanishning turli tiplari, shuningdek, qumli-cho'l va qumloqli tuproqlar shakllana boradi. Dengizning qurigan tubi Aqpetkey arxipelagiga tutash bo'lgan tuproq guruntlari mexanik tarkibiga ko'ra asosan bir xildagi qumlar va ba'zan yengil, o'rta va og'ir qumloqli qatlamlari bo'lgan qumloqlardan iborat. Orol bo'yi hududlarida tabiiy va antropogen ta'sirining kuchayishi, Orol dengizining qurub borishi bilan bog'liq ekologik holatning keskinlashuvi natijasida, region tuproq komponentlarining o'zaro bog'ligi va barqarorligi salbiy tomonga o'zgarib, tabiiy muvozanat buzilishi kuzatilmoqda. Ba'zan hududlarda minerallashgan yer osti suvlari yuzaga yaqin ko'tarilgan bo'lsa, qolgan maydonlarda qurg'oqlanish va saxrolanish jarayonlari faollashib, sho'rlanish jarayonlarini kuchayishiga olib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Bahodirov, A.Rasulov Tuproqchunoslik Toshkent-1975 215 b
2. Abdullaev S., Namozov X. Tuproq melioratsiyasi. Toshkent-2011 yil
3. Уваров Б.П. Саранчовые Средней Азии. //Узб.опытной станции защиты раст., Ташкент 1927.
- 4.Odilov A. A. Eroziyaga uchragan lalmi to'q tusli bo'z tuproqlarning fizikaviy xususiyatlari. Orol dengizi havzasining saholanish jarayonida tuproq unumdorligini tiklash, oshirish va ular melioratsiyasining dolzarb muammolari: Toshkent,2002.295-296 betlar.
5. Раҳматуллаев, А. Ю., Омонова, Н. Р., & Умарова, М. Ё. (2023). ЗООФАУНАНИНГ ТУПРОҚДАГИ ФАОЛИЯТИ. *SO 'NGI ILMYIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 6(5), 263-269.

6. Babonazarov, G. Y., Omonova, N. R., Orziyeva, Y. M., & Khosilova, G. A. (2022). Economic Damage Caused by Scabies Itch Mite, *Sarcoptes Scabiei* (Acariformes: Sarcoptidae) to the Wool Production of Sheep. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 2433-2436.

7. Рахматуллаев, А. Ю., Давронов, Б. О., Норкобилова, З. Б., & Омонова, Н. Р. (2021). Фауна Дождевых Червей В Узбекистана. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(5), 310-314.